

2-mavzu. DALA EKINLARI VA ULARNING UMUMIY TAVSIFI.

Reja:

1. Dala ekinlarining tavsifi

2. Dala ekinlarini guruxlarga bo`linishi

1. Dala ekinlarini yetishtirish qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib - ekinlarning biologik xususiyatlariga asoslanib, yuqori hosil yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishga tadbiq etish, fan yutuqlarini joriy qilish, respublikada o'simlikshunoslik mahsulotlarini yetishtirish holati, uning istiqbollari, dala ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishning mahalliy tuproq-iqlim sharoiti bilan bog'liqligi, ekinlarni joylashtirish tizimi, navbatlab ekish va va sifatli xosil olishni ilmiy va amaliy asoslab beradi.

Ekinlarning biologik xususiyatini kelib chiqishi, tuproq - iqlim sharoiti bilan bog'liqligi, N.I. Vavilov va boshqa olimlar tomonidan aniqlangan 12 ta kelib chiqish markazlari, shuningdek bu o'simliklarni guruhlarga bo'linishi bilan xarakterlanadi.

Dala ekinlari orasida eng ko`p tarqalgani bu bug`doy bo`lib, u qimmatli oziq-ovqat maxsuloti beradigan ekindir. Bug`doy unidan non yopiladi va non maxsuloti tayyorlanadi, donidan yuqori to`yimli yorma tayyorlanadi. Donning tarkibida 11-24 % oqsil bo`ladi. Oqsilning miqdori nav va etishtirish sharoitiga bog`liq bo`ladi..Bug`doy donidan spirt, kraxmal ishlab chiqiladi, bug`doy poxoli mollarga ozuqa va to`shama sifatida ishlatiladi. Bug`doy qadimiy o`simlik bo`lib u dunyoning deyarli xamma mamlakatlarida ekiladi. Bug`doyning vatani Osiyo mintaqasi.Er yuzida 239 mln.ga maydonga ekiladi. O`zbekistonda 1998 yili suvli erlarda 1mln.ga erga, lalmi erlarda 300 ming.ga ekilgan. Xosildorligi lalmi erlarda 8-12 sG`ga, suvli erlarda o`rtacha 30 s, ayrim xo`jaliklarda 70-80 sG`gadan olinmoqda. Bug`doy navlarining biologik imkoniyati yuqori.

Dala ekinlarini xosildorligi va maxsulotni sifati ekish uchun ishlatiladigan urug`ning urug`lik sifatiga bevosita bog`liqdir. Urug` tirik organizm xisoblanib, uning murtakchadan kelgusida o`simlik rivojlanadi. Shuning uchun o`simlik bo`lajak o`simlikni biologiyasi, xo`jalik va novdorlik xususiyatlarining o`z ichida mujassamlashtirgan bo`ladi. Shu sababdan dexqonchilik tarixida urug`likning sifat belgilariga katta etibor berib kelingan. Urug`lar uch xil sifat belgilariga ega 1). Urug`likning sifat belgilari yani ekishga yaroqli bo`lishi -unib chiqish darajasi va quvvati, o`sinh kuchi va tozaligi. 2).Nav tozaligi urug`ning malum bir nav tozaligiga ega bo`lish uning reproduksiyasi va 3) Urug`likni xosildorlik sifat belgilari-malum bir sharoitda yuqori xosil berish xususiyatlari.

Dala ekinlari mahsulotlarini ishlab chiqarish - qishloq xo`jaligining asosiy tarmoqlaridan biridir. Usib borayotgan aholining oziq-ovqat, engil sanoatning tarmoqlari uchun xomashyo, chorvachilik uchun oziqa etishtirishda dala ekinlarining biologik xususiyatlariga mos etishtirish texnologiyalarni qo`llagan holda ekologik toza, mo`l va sifatli hosil etishtirish o`simlikshunoslik fanining asosiy maqsadidir.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida keyingi yillarda qishloq xo`jaligining yangi, zamonaviy texnikalar, intensiv tipdagi navlar, duragaylar, o`g`itlarning yangi samaradorligi yuqori shakllari, turli pestitsidlar, biologik faol moddalar bilan ta'minlanishi, turli yo`nalishdagi ilg`or texnologiyalarning yaratilishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko`rsatish uchun tayyorlanayotgan mutaxassislarni chuqur, serqirra, malakali bilimga ega bo`lishini talab qiladi.

O`simlikshunoslikning asosiy obekti yashil o`simliklardir. Dala ekinlarini etishtirish mavsumiy xususiyatga ega. O`simlikshunoslik fani ekinlarni guruhlarga bo`lib, ularning ekologik, biologik xususiyatlarni o`rganishda selektsiya, urug`chilik, genetika, agrokimyo, dehqonchilik, mikrobiologiya, biokimyo, o`simliklar fiziologiyasi, tuproqshunoslik, agrometeorologiya, fitopatologiya, entomologiya singari fanlarning yutuqlariga tayanadi.

Hozirda er yuzasida o`simliklarning 500 mingdan ortiq turlari ma'lum bo`lib, shulardan 300 ming turi gulli o`simliklardir, ularning 20 ming turi odamlar tomonidan o`stiriladi. Madaniy o`simliklarning soni 1500 etadi, ammo ishlab chiqarish ahamiyatga ega bo`lganlari 640 tashkil etadi va shulardan 90 dala ekinlariga kiritiladi. Kelajakda yovvoyi o`simliklarni madaniylashtirish va ularni turli mahsulotlar olish uchun ekish hamda biologik xususiyatlarini o`rganish jarayoni davom etadi. Qo`ng`irboshsimonlar va dukkakli don ekinlarining - 78, moyli va tolali ekinlarning 53, ildiz va tuganakmevalar qamda boshqa ekinlarning 60 ortiq turlari eng ko`p tarqalgan.

Dala ekinlarining asosiy qismi (500 dan ko`prog`i) qadimgi dunyodan, 100 ga yaqin turlari yangi dunyodan kelib chiqqan. Amerikadan Evropa, Osiyo, Afrikaga kartoshka, kungaboqar, loviya, qovoq, tamaki, makkajo`xori, g`o`za va boshqa ekinlar keltirilgan.

Evropa va Osiyodan Amerikaga bug`doy, javdar, arpa, sulii, sholi, ko`k no`xat, no`xat, beda va boshqa ekinlar keltirilgan.

2. Dala ekinlarini guruhlariga bo`linishi. Dala ekinlarini o`rganishni osonlashtirish uchun ular o`stirish xususiyatlari, foydalanishi, asosiy maqsulotdan foydalanilishi qamda botanik, biologik xususiyatlari bo`yicha guruhlariga bo`linadi. Dala ekinlarini tasnifi olinadigan maxsulotga qarab tuzilgan. Bu tasnif bo`yicha dala ekinlari 6-ta guruxga bo`lingan:


1. Donli ekinlar-Bu ekinlar o`z aro 3-ta biologik guruxlarga bo`linadi: a) xaqiqiy don ekinlari (bug`doy, arpa, javdar, sulii, tritikale), b) tariqsimon don ekinlari-(makkajo`xori, jo`xori, tariq, sholi, marjumak), v) don-dukkakli ekinlar-(ko`k no`xat, maxalliy no`xat, loviya, soya, yasmiq, burchoq).





2.Yem-xashak o`tlar-bu gurux 4-ta biologik guruxlarga bo`linadi: a) ko`p yillik dukkakli o`tlar-beda, searga, bargak, qashqarbeda, b)ko`p yillik qo`ng`irbosh o`tlar-mastak turlari, oqso`xta, yerkak o`t,yaltirbosh, ajriqbosh, v)bir yillik dukkakli o`tlar -shabdar,bersim,vika, g)bir yillik qo`ng`irbosh o`tlar -sudan o`ti, qo`noq, mastak

3.Tuganakmevali, ildizmevali va poliz ekinlar-bu gurux 3- ta biologik guruxlarga bo`linadi: a)tuganakmevali ekinlar-kartoshka, topinambur, batat, b)ildizmevali ekinlar-qand lavlagi, xashaki lavlagi, xashaki sabzi, xashaki sholgom v)poliz ekinlar- qovun, tarvuz, qovoq.



4.Moyli ekinlar 2 ta biologik guruxga bo`linadi: a)seryog`li o`simliklar-kungaboqar, maxsar, kunjut, er-yong`oq, moyli zig`ir, raps b) efirmoyli ekinlar-oq zira, qora zira, kashnich, arpabodiyon.

5.Tolali ekinlar-bu gurux 3 ta biologik guruxga bo`linadi: a)tola urug`da rivojlanadi-go`za turlari. b) tola poya po`stlogida rivojlanadi-kanop, jut,zig`ir, rami, v)tola bargda rivojlanadi- tolali banan, Yangi Zelandiya zig`iri.



6.Narkotik o`simliklar- tamaki va maxorka.

Yurtimiz xududida qadimdan beri bug`doy, arpa, beda, tariq, jo`xori ekilib kelinmoqda. Keng tarqalgan o`simliklardan go`za turlari, meva-sabzavot va poliz

ekinlari ekilmoqda. O`zbekiston o`z axolisini oziq-ovqat maxsuloti bilan to`la ta'minlash uchun o`simlikshunoslik tarmogini rivojlanishini jadallashtirmoqi lozim. qishloq xo`jalik ekinlaridan yuqori xosil etishtirish uchun bir qator muxim tashkiliy iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishning moddiy texnika bazasini ancha mustaxkamlash, o`g`itlardan keng foydalanish, erlarning unumdorligini meliorativ va ekologik xolatlarini yaxshilash, yangi intensiv navlarni yaratish kabi ishlarni amalga oshishi lozim. Yurtimizda go`za 1,5 mln.ga, donli ekinlar suvli erlarda 1 mln., lalmi erlarda 300 ming ga ekilmoqda.

Dala ekinlarini ishlab chiqarish va botanik-biologik guruhlash

Foydalanishi bo`yicha guruhlash	Biologik kenja guruhlar	Avlod, tur
1. Don ekinlari	1. Qo`ng`irboshsimon don ekinlari 1-guruh 2-guruh 2. Marjumak 3. Dukkakli don ekinlari	Bug`doy, javdar, suli, arpa, tritikale Makkajo`xori, tariq, sholi, oqjo`xori Marjumak Ko`k no`xat, soya, no`xat, yasmiq, burchok, loviya, lyupin, xashaki dukkaklar.
2. Shirali oziqa ekinlari	4. Ildizmevalilar 5. Tuganakmevalilar 6. Poliz ekinlari	Qand lavlagi, kashaki turp, xashaki sholg`om, sabzi Kartoshka, er nok Tarvuz, kovok, kovun
3. Xashaki o`tlar	7. Xashaki karam 8. Ko`p yillik dukkakli o`tlar	Xashaki karam Beda, searga, kashqarbeda, bargak, ko`p yillik lyupin.

4. Moyli va efir moyli ekinlar	9. Ko`p yillik ko`ng`irboshsimon o`tlar	Ok so`xta, ajriqbosh erkak o`t, mastak, bug`doyiq, o`tloqi suli
	10. Bir yillik dukkakli o`tlar	Shabdar, bersim, vika, tukli vika
	11. Bir yillik ko`ng`irboshsimon o`tlar	Sudan o`ti, mog`or
	12. Noanan'aviy oziqa o`simliklari	Borshchevik, silfiya, perko, moyli turp
5. Tolali ekinlar	13. Moyli ekinlar	Kungaboqar, maxsar, kunjut, eryong`ok, xantal, maxsar, raps, moyli zig`ir.
	14. Efir moyli ekinlar	Zira, arpabodiyon, yalpiz
6. Narkotik ekinlar	15. Urug`idan tola beruvchi o`simliklar	G`o`za.
	16. Lub tolali ekinlar	Tolali zig`ir, nasha, kanop, jut
	17. Narkotik ekinlar va xmel	Tamaki, maxorka, xmel

O`simlikshunoslikning ekinlarni etishtirish texnologiyasi qismining vazifalariga - o`simlikning me'yorida o`sib, rivojlanishi, yuqori hosil shakllantirish uchun -ilmiy asoslangan almashlab ekishlarni joriy etish, ekinning eng yaxshi o`tmishdoshdan keyin joylashtirish, tuproqni ishlashda ildiz tizimining yaxshi rivojlanishi uchun optimal suvhavo, oziqlanish rejimini yaratish, organik -ma'danli o`g`itlardan samarali foydalanish, begona o`tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashda integral (uyg`unlashgan) uslublardan foydalanish, ekish uchun Davlat standart (andozali)lari talabiga javob beruvchi urug`lardan foydalanish, ekish muddatlari, me'yorlari, chuqurligini optimallashtirish, o`simlikni o`suv davrida, eng maqbul sug`orish tartibini yaratish, Davlat reestriga kiritilgan yoki istiqbolli navlar, duragaylarni ekish, hosilni

qisqa muddatda, nobudgarchiliksiz yig`ishtirib olish, dastlabki ishlov berish va saqlash tadbirlarini o`z vaqtida hamda sifatli bajarish masalalarini o`rganish kiradi.

Savollar:

1. Siz yashayotgan viloyatingizda qanday dala ekinlari ekiladi?
2. Nima uchun don-dukkakli ekinlar don ekinlar guruxiga kiritilgan?